

## Adiblar xiyoboniga talaba-yoshlarimizning tashrifi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan bunyod etilgan Adiblar xiyobonini talaba-yoshlarimiz uchun ilm maskanlaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda, desak xato xisoblanmaydi. Sababi Adiblar xiyoboniga tashrif buyurgan inson, she'ryat ruxida yuradi. Xayolan bu yerdagi shoir va yozuvchilar bilan suxbat quradi va ularning siymolari oldida o'z-o'zidan she'rlar o'qiydi. Shu maskanga "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakultetining faollari Xushvaqtoq Abbas va Ismatov Shoxjaxonlarning tashabbuslari bilan 06 oktyabr 2021 yil bir gurux fakultet talaba-yoshlari tashrif buyurishdi va ijodiy kecha uyushtirdilar.



Tashrif davomida talabalar o'zbek adabiyotining buyuk darg'alari shoir va yozuvchilarning xotirasiga bag'ishlab bunyod etilgan monumentlarni borib ziyorat qildilar, gulchanbarlar qo'yishdi. Talaba-yoshlarda xiyobonni sayr qilish jarayonida buyuk adiblarimizning o'chmas ijodibi bilan yana bir bor oshno bo'ldi va ushbu maskan mamlakatimiz ma'naviyatining qutlug' markazi ekaniniga amin bo'ldilar.

**YOBIB dekan muovini K.Usmonov**

**TIQXMMI matbuot xizmati**